



Барқарорлик белгиси!

“Turonbank” Aksiyadorlik tijorat bankinging

2023 yilga mo'ljallangan

BIZNES-REJASI

TASDIQLANGAN
“Turonbank” aksiyadorlik tijorat
banki Kengashining

2022 yil “ 30 ” Noyabr

K- 85 - sonli qarori bilan

N 1004

Toshkent – 2022

Biznes-reja mundarijasi

- I. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili
- II. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi va unda bankning o‘rni
- III. “Turonbank” ATBning asosiy ko‘rsatkichlari
- IV. Bankni transformatsiya qilish jarayonlari
- V. Bank investitsion faoliyatini va loyihalarning moliyalashtirish samaradorligini oshirish
- VI. Moliyaviy resurslar tarkibi
 - a. Xorijiy kredit liniyalari
 - b. Yuridik va jismoniy shaxslarning depozitlari
- VII. Chakana biznesni rivojlantirish
- VIII. Tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish
- IX. Bank bo‘linmalarini ta‘mirlash faoliyati
- X. Moliyaviy ko‘rsatkichlar tahlili

Ilovalar

- 1-ilova 2023 yilga mo‘ljallangan sof foyda Rejasi
- 2-ilova 2023 yilga mo‘ljallangan moliyaviy Reja
- 3-ilova 2023 yil uchun asosiy vositalar sotib olish Rejasi

I. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulot hajmi amaldagi narxlarda 627,5 trln.so'mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 5,8 foizga o'sdi.

Ko'rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y. (kutilishi)	2023-y. (prognoz)
Yalpi Ichki Mahsulot (trln.so'm)	602,6	734,6	840,0	882,0
Inflyatsiya darajasi (%)	11,1	10,0	12,5	9,5
Tashqi savdo aylanma (mlrd AQSH dollar)	36,3	42,1	46,3	54,7
Eksport (mlrd AQSH dollar)	15,1	16,6	20,2	24,2
Import (mlrd AQSH dollar)	21,2	25,5	26,1	30,5

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy ma'lumotlari

2022-yilda inflyatsiya darajasi 12,5 foiz atrofida bo'lishi prognoz qilingan bo'lsa, 2023-yilda 9,5 foiz, 2024-yilda 5,0-6,0 foiz miqdorida mo'ljal olingan.

Davlat byudjetining 2022-yildagi daromadlari **254,6 trln. so'mni** va xarajatlari **280,1 trln. so'mni** tashkil etishi kutilmoqda. 2023-yilda esa daromadlari **276,7 trln. so'mni** va xarajatlari **304,5 trln. so'mni** tashkil etishi kutilmoqda.

Tashqi savdo aylanmasi hajmi 2023-yilda **54,7 mlrd AQSH dollar** (o'sish sur'ati 18,0 foiz – 2023-yilda kutilayotgan prognoz 54,7 mlrd AQSH doll.), jumladan **eksport hajmi 24,2 mlrd AQSH dollar** (20,0 foiz), **import hajmi–30,5 mlrd AQSH dollarni** (17,0 foiz) tashkil etilishi rejalashtirilgan.

II. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi va unda bankning o‘rni

“Turonbank” ATB aktivlar bo‘yicha II guruh banklari orasida ham o‘zining samarali faoliyati bilan ajralib turibdi. Jumladan, aktivlar, kapital bo‘yicha ikkinchi o‘rinda bo‘lsa, kredit portfeli ko‘rsatkichlariga ko‘ra 1 o‘rinda boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha ham yetakchi o‘rinlarga egadir.

Bunda esa qishloq xo‘jaligi, mashinasozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish kabi sanoatning turli tarmoqlaridagi faollik muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

(mlrd.so‘m)

№	Banklar nomi	Aktivlar	Kapital	Kredit portfeli	Depozitlar	Sof foyda
1	"Turonbank" ATB	13 012,0	1 916,2	9 218,9	3 180,0	90,2
2	"Aloqabank" AT	15 118,8	1 724,7	8 411,5	6 831,3	160,1
3	"Ipak Yo‘li" AITB	12 482,3	1 990,9	7 799,7	3 816,7	402,2
4	"KDB Bank Uzbekistan" AJ	7 641,0	841,2	1 800,4	6 434,6	148,8
5	"Trastbank" ATB	7 893,1	1 487,3	3 493,1	6 192,6	498,1
6	"Orient Finans" XATB	10 469,0	1 562,3	4 820,8	6 277,7	310,0
7	"Invest Finance Bank" ATB	6 925,2	874,6	4 384,9	4 917,9	140,2
8	"Asia Alliance bank" ATB	5 714,3	516,2	2 077,0	4 575,9	136,6
9	"Tenge bank" ATB	3 633,0	1 222,8	1 907,9	1 239,2	3,1
10	"Davir-bank" XATB	3 267,6	566,7	2 542,4	1 310,2	150,8


Manba: * "Axbor-reyting" Reyting agentligining 2022 yil 1-oktabrdagi ma'lumotlari

I-guruh banklariga yuqori aktivga ega bo‘lgan moliya muassasalari kiradi. Ushbu guruhda “O‘zmilliybank”, “O‘zsanoatqurilishbank”, “Asakabank”, “Agrobank”, “Ipoteka-bank”, “Xalq bank”, “Qishloq qurilish bank”, “Mikrokreditbank”, “Kapitalbank” va “Hamkorbank” mavjud.

III-guruh banklari tarkibiga esa 12 ta tijorat moliya muassasasini kiritish mumkin. Bular, “Universal bank”, “Ziraat bank Uzbekistan”, “Garant bank”, “Ravnaq - bank”, “Anor bank”, “TBC bank”, “Saderat bank”, “Poytaxt bank”, “Madad invest bank” va “O‘zagroeksportbank”. Ushbu guruhning boshqalaridan farqi shundaki, unda tijorat banklarining soni bir muncha ko‘proq va moliyaviy ko‘rsatkichlari ham o‘rtacha.


III. “Turonbank” ATBning asosiy ko‘rsatkichlari

Aktivlar (mlrd.so‘m)



“Turonbank” ATBning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri bank aktivlarini sezilarli darajada o‘sganini ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, 2019-yilda umumiy aktivlar 5,9 trln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2022-yil yakunlari bo‘yicha **12,8 trln. so‘m**ga yetishi va 2023-yilga kelib qariyb **14,9 trln. so‘m**ni qayd etishi kutilmoqda. Ushbu muhim ko‘rsatkichning sezilarli darajada o‘sishi bankning faol investitsion va kredit siyosati bilan bog‘liqdir.


Bank kapitali (mlrd.so‘m)



“Turonbank” ATB barqarorligining muhim belgisi bo‘lgan bank kapitali ham o‘tgan davrda sezilarli darajada o‘sgan. 2019-yilda **1,1 trln. so‘m** bo‘lgan ushbu


ko'rsatkich, 2022-yilga kelib **1,9 trln. so'mga** yetishi, 2023-yilda esa bu raqam **2,1 trln. so'mni** tashkil etishi rejalashtirilmoqda.

Kredit portfeli (mlrd.so'm)





O'tgan davrda amalga oshirilgan tizimli ishlar natijasida bank kredit portfeli 2019 yildagi 4 400,0 mlrd. so'mdan 2022-yil yakunlari bo'yicha **9,5 trln. so'mga** yetishi va 2023-yilda bu ko'rsatkichni **1,9 trln. so'mga** oshirib, **11,4 trln. so'mga** yetkazish rejalashtirilmoqda.

Daromadlar (mlrd.so'm)



Xarajatlar (mlrd.so'm)





Bankning moliyaviy natija ko‘rsatkichlari ham o‘tgan davrda sezilarli darajada oshgan. Xususan, bank 2019-yilda 85,0 mlrd. so‘m sof foyda olingan bo‘lsa, 2022-yil yakuni bo‘yicha 110 mlrd. so‘m sof foyda olishi rejalashtirilgan. Shuningdek, 2023-yil uchun sof foyda rejasi 120 mlrd. so‘m darajasida tasdiqlanishi ko‘zda tutilgan.

IV. Bankni transformatsiya qilish jarayonlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2020—2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PQ-5992-sonli Farmoni ijrosidan kelib chiqib, bankni xalqaro andozalarga muvofiq ish yuritadigan zamonaviy tijorat bankiga aylantirish, ya‘ni institutsional transformatsiya qilish loyihasini amalga oshirish maqsadida, 2020-yildan xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan va bankni transformatsiya qilish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rilmoqda. Xususan:

Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik

Turonbankni transformatsiya qilish maqsadida **Jahon banki guruhiga kiruvchi Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC)** bilan hamkorlik o‘rnatildi va ular tomonidan 2020-yil yanvar-fevral oylarida bank faoliyati dastlabki diagnostikadan o‘tkazildi. Diagnostika davomida **Korporativ boshqaruv, bankda risklarni boshqarish, HR menejmenti, kichik va o‘rta biznesga xizmat ko‘rsatish, axborot texnologiyalari infrastrukturasi yangilash va eng asosiysi biznes-jarayonlari** bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator muammo va kamchiliklar aniqlandi. Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan Bankda o‘tkazilgan tahlil bo‘yicha aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan Chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi va Kengash tomonidan tasdiqlandi. Ayni paytda ushbu chora-tadbirlar doirasida ishlar muntazam tarzda olib borilmoqda.

Shuningdek, Bankni transformatsiya qilish ishlarini jadallashtirish maqsadida,

maslahat (konsultatsiya) xizmatlari ko'rsatish bo'yicha Xalqaro Moliyaviy Korporatsiyasi (XMK) bilan 2021-yil 22-iyun kuni kelishuv shartnomasi imzolanib, ushbu kelishuv doirasida XMK tomonidan bankning joriy operatsiyalari, kredit jarayonlari, risklarni boshqarish, korporativ boshqaruv bo'yicha batafsil baholash amalga oshirildi hamda bankning biznes jarayonlari joriy diagnostikadan to'liq o'tkazildi. Shu bilan birga, biznesni tashkil qilish va qo'llab-quvvatlash tizimlari, raqamlashtirish strategiyasi hamda rejalashtirilgan xususiylashtirishga tayyorgarlik ko'rish uchun XMK bilan birgalikda Turonbankni 2022-2025-yillar davomida to'liq transformatsiya qilish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Mazkur Yo'l xaritasida belgilangan vazifa va loyihalarni sifatli bajarish maqsadida Bankda Loyihalarni boshqarish ofisi tashkil etildi. Shuningdek, bugungi kunda "Yo'l xaritasi"ni amalga oshirish maqsadida, xalqaro moliya institutlari bilan shartnoma imzolash rejalashtirilgan.

2022-yilda 31-avgust kuni Turonbankni to'liq transformatsiya qilish yuzasidan Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) bilan navbatdagi kelishuv shartnomasi imzolandi.

Transformatsiya jarayonlariga jalb qilingan ekspertlar

Xalqaro moliya korporatsiyasi tavsiyalaridan kelib chiqib, ilg'or texnologiyalarga asoslangan "**Colvir Software Solutions**" kompaniyasi tomonidan yaratilgan zamonaviy avtomatlashtirilgan bank tizimi (ABS) dasturiy ta'minotini joriy etish maqsadida "**Colvir Central Asia**" MCHJ hamda "**GPI group**" xalqaro kompaniya konsultantlari jalb etildi va bank xizmatlari bo'yicha biznes jarayonlari ishlab chiqish va ularni avtomatlashtirish bo'yicha ishlar amalga oshirildi.

Korporativ boshqaruvni takomillashtirish

Jahon banki guruhiga kiruvchi Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) tomonidan bankda o'tkazilgan diagnostika natijalari bo'yicha berilgan tavsiyalariga asosan bank Ustaviga, Kengashi to'g'risidagi Nizomga, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi to'g'risidagi Nizomiga hamda Boshqaruvi to'g'risidagi Nizomiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi.

Shuningdek, «Komplaens nazorat departamenti to'g'risida»gi, Manfaatlarni qarama-qarshiligi vaqtida harakat qilish tartibi to'g'risidagi va Axborot siyosati to'g'risidagi, Minoritar aksiyadorlar qo'mitasining faoliyat ko'rsatishi tartibi to'g'risidagi Nizom, Kuzatuv Kengashi a'zolarini mukofotlash tartibi to'g'risidagi Nizom, Dividend siyosati to'g'risidagi Nizom hamda "Kuzatuv Kengashi va Qo'mitalari, Kengash Raisi va a'zolari faoliyatini baholash" Qoidalari tasdiqlandi.

Bundan tashqari bank Kengashining 2021-yil 7-yanvardagi K-3-sonli qarori bilan "Turonbank" ATBda Korporativ boshqaruv Siyosati, Jahon banki guruhiga kiruvchi Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) tomonidan bankda o'tkazilgan diagnostika natijalari bo'yicha berilgan tavsiyalariga asosan Xalqaro moliya korporatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan "Turonbank" aksiyadorlik tijorat bankining Korporativ boshqaruv Kodeksi» 2021-yil 30-iyunda bo'lib o'tgan bank

aksiyadorlarining navbatdagi umumiy yig'ilishida tasdiqlandi.

“Turonbank” ATBda yil yakuni bilan Korporativ boshqaruv tizimini baholash ishlari o'tkazildi. Baholash natijalariga ko'ra, bankda korporativ boshqaruv tizimi “yuqori” deb baholandi.

Bank tarkibiy tuzilmasida “Korporativ boshqaruv xizmati” tashkil etildi hamda korporativ boshqaruvchi malaka attestatiga ega bo'lgan malakali mutaxascilar bilan butlandi.

Bank Kengashi a'zolari tarkibi **11 nafardan - 9 nafarga** kamaytirildi va **4 ta** mustaqil **Kengash a'zolari jalb etildi.** Jumladan, Zamonaviy korporativ boshqaruv tamoyillariga asosan “**Osiyo taraqqiyot banki**”ning “**Bank-moliya**” yo'nalishi bo'yicha xalqaro eksperti Nizomiddin Muradov bank Kengashiga **mustaqil a'zo sifatida kiritildi.**

Bundan tashqari, Polsha Respublikasi PKO Bank Polski xalqaro eksperti Gjegoj Zavada Bank Kuzatuv Kengashi **mustaqil a'zosi** sifatida jalb etildi.

Shuningdek, bank Kengashiga mustaqil a'zo sifatida “Prime Ceramics” MCHJ moliya direktori Xolmaxmadov Zokirjon Abduraxmanovich va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar Markazi Bosh ilmiy xodimi, iqtisod fanlari doktori, professor Odil Olimjonov saylandi. **Mustaqil Kengash a'zolar ulushi 44%ni tashkil etmoqda.**

Bank Kengashi tarkibida Audit, Risk, Lavozimga tayinlash va mukofotlash qo'mitalari qaytadan tuzildi, Strategiya va investitsiyalar Qo'mitasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitalari tashkil etildi. Har chorak yakuni bilan bank boshqaruvi tomonidan qo'mitalarga hisobotlar taqdim etilishi yo'lga qo'yildi.

“Turonbank” ATBni transformatsiya qilish maqsadida Jahon banki guruhiga kiruvchi Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC) bilan 2022 yil avgust oyida tuzilgan hamkorlik bitimiga asosan ular tomonidan bankning korporativ boshqaruv tizimi to'liq diagnostikadan o'tkazildi.

O'tkazilgan diagnostika natijalariga ko'ra bank Ustavi hamda ichki hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek korporativ boshqaruv tizimining xalqaro tamoyillariga asosan bir qator yangi me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish, bank Kengashi va Boshqaruvi hamda korporativ boshqaruv xizmati xodimlarining korporativ sohadagi bilimlarini yanada oshirish maqsadida Xalqaro Moliya korporatsiyasi tomonidan treninglar o'tkazish, Ekologik-sotsial risklarni boshqarish tizimini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha harakatlar rejasini ishlab chiqish taklifi bildirilib, “2022-2023-yillar davomida “Turonbank” ATB korporativ boshqaruv tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini” ishlab chiqilib bank Boshqaruvining 2022-yil 2022 yil 25-noyabrdagi 104/12-Qaroriga muvofiq ma'qullandi va tasdiqlash maqsadida Bank Kengashi muhokamasiga kiritildi.

Yuqoridagi chora-tadbirlar rejasiga asosan Xalqaro moliya korporatsiyasi bilan hamkorlikda 2023 yil davomida quyidagilar amalga oshiriladi:

- Korporativ boshqaruv masalalari bo'yicha bankning ichki normativ bazasini

bankning bir qator ichki hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda yangi ichki me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish orqali takomillashtiriladi;

- Bankning korporativ boshqaruv hamda ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish sohalari bo'yicha ichki potentsiallarini oshirish maqsadida Xalqaro moliya Korporatsiyasi tomonidan korporativ boshqaruv hamda ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish sohalari bo'yicha o'tkaziladigan bir qator treninglarda Kuzatuv Kengashi va bank xodimlari o'qitiladi;

- Kuzatuv Kengashi, uning Qo'mitalari va boshqaruvi tuzilmasi, tashkiliy asoslari va ish tartibini takomillashtirish maqsadida Kuzatuv Kengashining vakolatlar matritsasi ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi, Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish siyosatini amalga oshirish uchun mas'ul xodim tayinlanadi yoki mavjud xodimning vakolatlarini kengaytiriladi;

- Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir etiladi.

Ichki auditning samaradoriligini oshirish

Ichki audit xizmatini sifatli va miqdoriy tarkibni shakllantirishda, shuningdek, auditorlik dasturlarini va audit tekshiruvlari natijalari bo'yicha hisobotlarni tayyorlash va tasdiqlashda ichki audit xizmatining ijro organlaridan to'liq mustaqilligi ta'minlangan.

Shuningdek, Ichki audit xizmati tomonidan bankning tarkibiy bo'linmalari va bank xizmatlari markazlarida o'tkaziladigan yalpi ichki audit tekshiruv hisobotlari bo'yicha Auditorlik qo'mitasiga o'z vaqtida hisobotlarni taqdim etish.

Audit tekshiruvda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etilishi yuzasidan nazorat tekshiruvlarini o'tkazish hamda tegishlilik bo'yicha bankning tarkibiy bo'linmalari qat'iy nazoratiga o'tkazish yo'li bilan bartaraf etish.

Bank faoliyatida hujjatlar aylanishi va ulardan foydalanishda qulayliklar yaratish maqsadida "Turonbank" ATB tomonidan barcha turdagi me'yoriy huquqiy hujjatlarda (*farmoyish, buyruq, qarorlar va b.*) belgilangan talablarni ijrosi o'z vaqtida ta'minlanishi nazorati sifatida soha mutaxassislari bilan kelishgan holda elektron hujjatlar aylanishini tashkil qilish.

Kengash ichki va tashqi baholash orqali ichki audit xizmati faoliyatini baholab borishi va nazorat qilishi Bunda ichki baholash ichki audit xizmati faoliyatini monitoring qilish, uning xodimlari faoliyatini va bilimini baholab borish orqali hamda taqdim etilgan auditorlik hisobotlari sifatidan kelib chiqib amalga oshirilishi yo'lga qo'yish.

Shu bilan birga Ichki audit xizmatini Riskka asoslangan nazoratga o'tkazish va faoliyatini tashqi baholash bo'yicha bankka aloqador bo'lmagan auditorlik tashkilotlari o'rtasida tanlov e'lon qilindi. Tanlovda g'olib bo'lgan auditorlik tashkiloti bilan shartnoma tuzildi va yil yakuniga qadar tashqi auditorlik xulosasi olinadi.

Ichki audit xodimlari uchun samarali tadbirlar ishlab chiqish va doimiy

ravishda xodimlar malakasini oshirib borish, tegishli xodimlarni qayta tayyorlash maqsadida o'quv kurslari tashkil etish.

Ichki audit departamenti Kuzatuv Kengashiga joylardagi bank xizmatlari markazlarida hamda Bosh bankning tegishli tarkibiy departamentlari, boshqarmalarida yalpi audit tekshiruv o'zkazish bo'yicha 2023 yil uchun mo'ljallangan ish rejasi taqdim etildi.

Ichki audit tekshiruvlari faqat "Ichki audit" xizmati (departamenti) xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Audit tekshiruvida ichki audit xizmati xodimlari soni, audit tekshiruvlarining qamrov doirasi va muddati ichki auditning o'z maqsadlariga erishishi va vazifalarining samarali bajarilishi uchun yetarli bo'lishi hamda barcha yo'nalishlarni o'z ichiga olishi lozim.

O'tkaziladigan audit tekshiruvlari mustaqillik, xolislik, erkinlik, professional malakalilik va maxfiylik prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

Dastur bank balansini hamda daromad va xarajatlarini to'g'riligini tekshirish, tahlil qilish, ichki nazorat ahvoriga yoki bank faoliyatiga umumiy baho berish uchun asos hisoblanadi.

Ushbu Dastur audit xizmati tekshirish doirasini chegaralab qo'ymasdan, balki unda berilgan umumiy yo'nalishlarga asosan ichki audit tekshiruvlari bank faoliyatining barcha jabhalarini qamrab olishi zarur.

Ichki nazorat (komplaens) tizimining ahamiyatini oshirish

“Turonbank” ATBda “Compliance control” tizimi joriy qilindi hamda bir qator ichki me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi. Jumladan, "Turonbank" ATB tizimida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish choralari to'g'risida"gi siyosati, “Turonbank” ATBda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti, “Turonbank” ATBda manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom hamda boshqalar.

Shu bilan birga, joriy yilning 28-may kuni Kengash qoshida “Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika” qo'mitasi tashkil etildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida amalga oshirilgan chora-tadbirlar haqida keng jamoatchilikka muntazam xabardor qilish uchun bankning rasmiy veb-saytida maxsus sahifa, elektron pochta, ishonch telefoni va telegram bot kanallari ochildi, jumladan:

- anticorrupt@turonbank.uz elektron pochta
- @turonbankanticor_bot telegram boti
- Fuqarolardan korrupsiya holatlari bo'yicha ma'lumotlarni qabul qilish bo'yicha 71 244 28 89 – raqamli bank ishonch telefoni.

Bank xizmatlarida inson omilini kamaytirish va xodimlarni ishga olishda shaffoflikni ta'minlash maqsadida “Turonbank” ATB tizimida “Korrupsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirish yuzasidan 2023-yilga mo'ljallangan “YO'L XARITASI”, bank tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi hamda korrupsiyaga qarshi

kurashish bo'yicha dastur ishlab chiqiladi.

Bankning korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimini ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga muvofiqlashtirish maqsadida "CERT Academy" xalqaro trening kompaniyasi bilan sertifikatlashtirish bo'yicha amaliy muzokaralar olib borilmoqda. ISO 37001:2016 xalqaro standart sertifikati korrupsiya holatlarining oldini olish, aniqlash, zarur choralarni ko'rish hamda korrupsiya xavfini kamaytirishga yo'naltirilgan maqbul va aniq mezonli chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

Shuningdek, bugungi kunda dunyodagi geosiyosiy vaziyat va sanksiyalar bilan bog'liq xatarlar, ularni samarali boshqarish maqsadida, Sanksaviy komplaens xizmatini tashkil etildi. Bank Boshqaruvining 2022-yil 22-avgustdagi 77/6-sonli qarori bilan «Xalqaro moliyaviy sanksiyalar bilan ishlash Reglamenti» ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Xodimlarining moliyaviy sanksiyalar bilan ishlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirib borishda nufuzli moliyaviy tashkilotlar (Deloitte, Pricewaterhouse Coppers, Ernst & Uoung, KPMG) bilan hamkorlikda seminar treninglar tashkil etish rejalashtirilgan.

Bankning ichki nazorat tizimini amaldagi qonun xujjatlariga muvofiqlashtirish va sohaga oid risklarni samarali boshqarish tizimini joriy qilish maqsadida "Deloitte & Touche" xalqaro konsultant kompaniya ekspertlari tomonidan amaldagi ichki me'yoriy hujjatlar O'zbekiston Respublikasi qonunchilik talablari va ilg'or xalqaro amaliyotga mosligi o'rganib chiqildi va tegishli tavsiyalar berildi. Mazkur tavsiyalarga asosan 2023-yilda bank ichki nazorat tizimini amaldagi qonun xujjatlariga muvofiqlashtirish hamda sohaga oid risklarni aniqlash, baholash, monitoring qilish va aniqlangan risklarni kamaytirish mexanizmlarini xalqaro tajriba asosida takomillashtirish bo'yicha harakatlar strategiyasi ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Bank xizmatlari sifatini oshirish va axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish

Xalqaro moliya korporatsiyasi tavsiyalaridan kelib chiqib, ilg'or texnologiyalarga asoslangan "**Colvir Software Solutions**" kompaniyasi tomonidan yaratilgan zamonaviy avtomatlashtirilgan bank tizimi (ABT) dasturiy ta'minoti joriy yilning sentyabr oyidan amaliyotga tatbiq etildi.

Transformatsiya jarayonlari bilan parallel ravishda Turonbankda xizmatlar ko'rsatish qamrovini oshirish maqsadida **72 ta** bank xizmatlari ofisi, **101 ta** o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish markazlari (**24/7**) hamda **94 ta** xalqaro pul o'tkazmalari shoxobchalari tashkil etildi.

Bank tomonidan tarif rejaları qayta ko'rib chiqilib, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi, mijozlar uchun jozibador hamda samarali tariflar ishlab chiqilib taklif etildi.

2022 yilda bankning “Chakana biznes” yo‘nalishi bo‘yicha bir qancha ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, 2022-yilda “Visa” xalqaro to‘lov kartalarini emissiyasi yo‘lga qo‘yildi. Hozirda, bank tomonidan Visa Classic, Visa Gold, Visa Business kartalari emissiya qilinib kelinmoqda.

Bankning jismoniy shaxslar uchun yangilangan “My Turon” mobil ilovasi ishga tushirildi. Mazkur ilova orqali mijozlar tomonidan onlayn omonatlar ochish, onlayn konversiya amaliyotlari, onlayn mikroqarz olish, avtokredit, iste‘mol krediti va mikroqarz olish uchun onlayn ariza qoldirish, kontaktsiz to‘lovlar uchun “Humo pay” to‘lov tizimi, ilovaning o‘zida virtual bank kartalari ochish imkoniyati, bank kartalari ochish uchun buyurtma berish, to‘lovlar uchun “Cash back” tizimi, doimiy bank mijozlariga kirish bonuslari va boshqa ko‘plab yangiliklar joriy qilindi.

Shuningdek, bankda yangi ishga tushirilgan “Colvir banking system” avtomatlashtirilgan tizimi orqali mijozlardan gibrid to‘lovlar qabul qilish, bank kassalari orqali amalga oshirilgan to‘lovlarni “RRN” orqali tasdiqlab o‘tkazish tizimi ishga tushirildi.

Bundan tashqari, “Colvir banking system” avtomatlashtirilgan tizimiga “Zolotaya korona”, “Unistream”, “Contact” xalqaro pul o‘tkazmalari bilan to‘g‘ridan – to‘g‘ri integratsiya qilindi. “Zolotaya Korona” xalqaro pul o‘tkazmalari tizimi orqali bankning “Visa” va “Mastercard” xalqaro plastik kartalariga onlayn ravishda pul o‘tkazish tizimi joriy qilindi.

Chakana kreditlash yo‘nalishi bo‘yicha “Кредитный фронт офис” avtomatlashtirilgan skoring tizimi ishga tushirildi. Mazkur tizim orqali inson omili ishtirokisiz onlayn mikroqarz ajratish, boshqa turdagi kredit turlari bo‘yicha minimal darajada xodim aralashuvisiz mijozning kredit to‘lov qobiliyatini tahlil qilish kabi imkoniyatlar yaratildi.

Aholi va tadbirkorlarga qulayliklar yaratish, risklarni oldini olish maqsadida raqamli va masofaviy bank xizmatlarining yangi turlari yaratilmoqda. Xususan:

Masofadan turib xizmat ko‘rsatish tizimlarida Markaziy bank tezkor to‘lovlar tizimi orqali yuridik shaxslarning 24/7 rejimida to‘lovlar o‘tkazishlari uchun imkoniyatlar yaratildi;

Mijozlar uchun masofadan xizmat ko‘rsatish tizimlari orqali rekvizitlar bo‘yicha to‘lovlarni, shu jumladan, depozit hisobvaraqlari va ssuda hisobvaraqlaridan foydalangan holda to‘lovlarni amalga oshirish imkoniyatlari yaratildi;

Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan tadbirkorlik subyektlari va yuridik shaxslarga kreditlarni “COLVIR ANALITIK PLATFORMA (KFO)” dasturi orqali ajratish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Bunda faoliyat natijasidagi yillik tushumining (moliyaviy yordam va ustav kapitalni shakllantirish uchun tushgan mablag‘lar hisobga olinmaydi) **50 foizi, biroq oxirgi 6 oyda pul tushumiga ega** mijozlarga kredit ajratish masalasi ko‘rib chiqiladi;

Bank xizmatlari markazi va ofislarida zamonaviy elektron navbat, kontakt-markaz, QR texnologiyasi orqali to‘lovlarni o‘tkazish, “Tap to phone” (One touch) tizimida “Humo” lokal kartalari va “Visa” xalqaro to‘lov kartalari orqali to‘lovlarni

smartfon yordamida qabul qilish, shuningdek “One Touch” dasturida “Pin on glass” texnologiyasi ishga tushirildi. Mazkur texnologiya yordamida mobil telefon orqali mijozlar 100 000 so‘mdan oshgan to‘lovlarni o‘z PIN kodlari orqali tasdiqlash imkoniyati yaratildi. “Mastercard” va “Visa” xalqaro plastik kartochkalari uchun 3D secure xavfsizlik tizimining eng so‘ngi 2.1 versiyasi joriy qilindi, Mastercard&Turonbank&Tourist.uz kobrending kartalari hamda 2022-yilda “Visa Classic”, “Visa Gold”, “Visa Business” xalqaro plastik kartalari va “Humo” to‘lov tizimi bilan hamkorlikda Visa&Humo kobeyjing kartalari joriy qilindi. BXM va BXOlarda My ID dasturiy ta‘minoti ishga tushirilib, Face ID texnologiyasi asosida chakana kreditlarni skoring analiz qilish tizimi COLVIR ANALITIK PLATFORMA (KFO) dasturida joriy qilindi. Xozirda My ID tizimini bankning yangi ABT tizimi chakana biznes yo‘nalishida keng joriy qilindi;

Axborot tizimlarni boshqarish va masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilarni identifikatsiya qilish imkonini beruvchi axborot xavfsizligini ta‘minlovchi fayrvol qurilmalari va serverlar o‘rnatildi hamda ular texnologik jihatdan ishga tayyor holatga keltirildi;

Valyuta ayirboshlash xususiyatiga ega bo‘lgan bankomatlar orqali “**Humo**” plastik kartalaridan **50 va 100** nominal miqdorida xorijiy valyutalarni **24/7** rejimida sotib olish imkoniyati yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, mazkur bankomatlar orqali Turonbankning “Mastercard” xalqaro plastik kartochkalarini naqd AQSH dollarida to‘ldirish imkoniyati mijozlarga taqdim etildi. Bundan tashqari, xorijiy valyutalarni naqd milliy valyutaga sotib olish imkoniyati yaratildi;


Xodimlar malakasini oshirish va zarur mutaxassislarni shakllantirish maqsadida, “O‘quv markazi” tashkil etilgan. Endilikda “O‘quv markazi” zimmasiga Bank xodimlarining malakalarini oshirib borish hamda malakali xodimlardan foydalangan holda yetuk kadrlar zaxirasini yaratib borish vazifasi yuklatildi;

Bankda 2022-yilda Biznes jarayonlar, Axborot texnologiyalar va amalga oshiriladigan ishlar

Xodimlarni moddiy manfaatdorligini oshirish va ularga zarur moddiy shart-sharoitlarni yaratish, bankni eng **muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI)** asosida boshqarish va faoliyatini baholashning zamonaviy usullarini barcha yo‘nalishlar bo‘yicha joriy qilish va mijozlarni jalb qilish hamda ularga xizmat ko‘rsatish va bank mahsulotlarini yetkazish jarayonlarini o‘z ichiga oladigan **mijozlar bilan munosabatlar boshqarish (SRM), hisobotlarni avtomatik ravishda shakllantirish (Data Warehouse) tizimi** hamda bankning **Kontakt-markazi** tatbiq etilishi ko‘zda tutilgan.

Jismoniy shaxslarga bir necha xil turdagi kredit mahsulotlarini joriy etish ustida amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, “**Uzcard**” va “**Humo**” to‘lov tizimlari bilan hamkorlikda “**Kredit**” kartalari va “**Credit Loan**” kartalari **joriy qilinadi.**

V. Bank kreditlash faoliyatini va loyihalarning moliyalashtirish samaradorligini oshirish



“Turonbank” ATB kreditlash faoliyat va loyihalarni moliyalashtirish samaradorligini oshirish bo‘yicha 2023-yilda **4 000 mlrd. so‘m** miqdorida kredit va investitsion loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda.

Shundan, **1 350 mlrd.so‘m** (34%) kichik va o‘rta biznes vakillariga, **1,0 trln.so‘m** (25%) yirik korxonalariga, **500 mlrd.so‘m** (12%) qisqa muddatli aylanma mablag‘lar uchun va **1 150 mlrd. so‘m** (29%) chakana kreditlar uchun ajratilishi ko‘zda tutilgan.

2023-yilda xizmat ko‘rsatish tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlanishi reja sifatida belgilangan bo‘lib, savdo va umumiy ovqatlanish, qurilish va boshqa xizmatlar, turizm va transport, ta‘lim hamda sog‘liqni saqlash sohalari shular jumlasidandir.

Bunga misol qilib hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilashga hissa qo‘shishi kutilayotgan bir qator yirik ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish korxonalarini keltirishimiz mumkin.

1 “JAVOHIR MEDICAL CENTRE” MCHJ

Tibbiyot xizmatlarini ko'rsatishni tashkil etish

Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri

(mlrd.so'm)

	Loyiha qiymati	80,0	Bank kredit	42,0	O'z mablag'i	38,0	Ish o'rni	200 nafar
--	----------------	------	-------------	------	--------------	------	-----------	-----------

Keltiriladigan tibbiyot uskunalari

- MRT
- MSKT
- EEG
- Rentgen
- Laboratoriya jihozlari
- Dozatorlar
- Sterilizatorlar
- Analizatorlar
- Tibbiy stol-stul, krovat va boshqa jihozlari

PHILIPS



PRIMAX

NITROCARE

PHYSIOMED
TECHNOLOGY FOR THERAPY

- 200 nafar bemorlar yotib davolanishlari uchun sharoit yaratiladi
- Kuniga 300 nafar aholiga bir martalik tibbiy xizmatlar ko'rsatiladi
- Jarrohlik amaliyotlari o'tkazish yo'lga qo'yiladi
- 30 nafar oliy toifali vrach, 120 nafar shifokor va hamshiralar hamda 50 nafar texnik xodimlar jalb qilinadi



Xususan, “JAVOHIR MEDICAL CENTRE” MCHJ ning tibbiyot xizmatlari ko'rsatishni tashkil etish loyahasiga bank tomonidan **3,8 mln.dollar** miqdorida kredit mablag'lari hisobiga klinika xorijdan olib kelinadigan zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlanadi va aholiga keng turdagi tibbiyot xizmatlarini ko'rsatish yo'lga qo'yiladi. Loyihani amalga oshirish natijasida **200** dan ortiq ishchi o'rinlari yaratiladi.

2 “FAZMAN TEXTILE” MCHJ

Tikuvchilik fabrikasini tashkil etish

Namangan viloyati, Namangan shahri

(mlrd.so'm)

	Loyiha qiymati	60,2	Bank kredit	41,1	O'z mablag'i	19,1	Ish o'rni	943 nafar
--	----------------	------	-------------	------	--------------	------	-----------	-----------

Ishlab chiqariladigan mahsulotlar

FAZMAN

VAKKONI

Kuniga 3 000 dona erkaklar kiyimlari ishlab chiqariladi (ko'ylak, kostyum shim va palto)

Uskunalar keltiriladigan davlatlar



Xorijiy hamkorlar

BOSS
HUGO BOSS

CARL GROSS

DIGEL

DIMARK

ROYAL SPIRIT

	Eksport hajmi	15 mln.doll.
--	---------------	--------------



“FAZMAN TEKSTIL” MCHJ bilan Namangan viloyati, Namangan shahrida umumiy qiymati **60,2 mlrd.so'mlik** tikuvchilik fabrikasini tashkil etish uchun tikuv

dastgohlarni sotib olish loyahasini amalga oshiryapmiz. Loyiha doirasida bank krediti **19,1 mlrd.so‘m** (1,7 mln doll.)ni tashkil etadi va ushbu mablag‘lar hisobiga **Germaniya va Turkiya** davlatlaridan uskunalar jamlanmasi olib kelinadi.

Korxonaga kuniga **3 ming** dona erkaklar kiyimi (kostyum shim, palto, ko‘ylak) ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘ladi. Bunda **900** dan ortiq ish o‘rinlari yaratilishi ta‘minlanadi.

3 “AGRO BAHT” MCHJ


Gidroponika usulida issiqxona tashkil etish (Samarqand viloyati, Paxtachi tumani)

(mlrd.so‘m)



“AGRO BAHT” MCHJning energiya tejkor hamda suv tejovchi texnologiyalardan foydalangan holda **24 gektar** yer maydonda gidroponika usulida issiqxona tashkil etish bank tomonidan **5,0 mln. dollar** miqdorida kredit mablag‘lari ajratilishi ko‘zda tutilgan. Mazkur issiqxona kompleksida yiliga **4 mln. tonnagacha** mahsulot yetishtirilishi natijasida eksport hajmi **4 mln.dollar** erishiladi hamda ushbu loyiha ishga tushishi natijasida **200 ta** yangi ishchi o‘rinlari yaratiladi.

Gidroenergetika loyihalari (1 100 mlrd.so‘m kreditlar ajratiladi)




Mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim bo‘lgan loyihalardan biri **gidroenergetika** yo‘nalishidagi ishlarni amalga oshirish “Turonbank” ATB tomonidan bajariladi.

2019-2022-yillarda moliya muassasasi 16 ta GESni moliyalashtirgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib ularning soni 78 taga yetishi, mavjud quvvatlar esa 2 824 MVt tashkil etishi rejalashtirilmoqda.

Loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha ajratiladigan mablag‘lar esa Hukumat kafolati asosida jalb qilingan Eksimbank (Xitoy) va VEB.RF (Rossiya) singari xorijiy kredit liniyalari hisobiga to‘g‘ri kelmoqda. Ushbu resurslar orqali umumiy miqdorda 19 ga yaqin loyihalarga **405,6 mln AQSH dollar** miqdorida mablag‘lar yo‘naltirilishi kutilmoqda.


2018-2022-yillarda jami **205,53 mln AQSH dollar** miqdorida kredit mablag‘lari o‘zlashtirildi.

VI. Moliyaviy resurslar tarkibi



“Turonbank” ATBning moliyaviy resurslar tarkibi 2022-yilda **4 100 mlrd.so‘m**ni tashkil etmoqda.

Shundan, Eksimbank (Xitoy) kredit liniyasidan 483,8 mlrd.so‘m, VEB.RF (Rossiya)dan 560,0 mlrd.so‘m, Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankidan 225,0 mlrd. so‘m, Xalqaro qishloq xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasidan 14,3 mlrd. so‘m miqdorida mablag‘lar jalb qilinishi rejalashtirilgan.



